



## BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY MADANIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Shukurova Difuza

QarDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6244592>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 09 - fevral 2022  
Ma'qullandi: 14-fevral 2022  
Chop etildi: 19 - fevral 2022

### KALIT SO'ZLAR

Maktabgacha talim,  
konsepsiya, bola,  
tarbiyachi, psixologik  
xizmatlar, malaka,  
temperament.

### KIRISH

Mamlakatimizda so'ngi yillarda talim sohasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha talim alohida vazirlik sifatida tashkil qilinganligi yosh avlod tarbiyasining eng quyi pog'onasiga naqadar katta etibor berilayotganligiga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>1</sup>, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 10-maydagi PQ-4312/3106-sonli qarori PQ-2707-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini

### ANNOTATSIYA

*Maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy va madaniy munosabatlarini shakllantirishning psixologik va pedagogik jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilib, ushbu yo'nalishda olib borilishi lozim bo'lgan ishlar haqida tahliliy xulosalar va fikr-mulohazalar keltirilgan.*

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni, ushbu tizimni yanada rivojlantirish bo'yicha umumiy kompleks chora-tadbirlarni o'zida qamrab oladi. Bu kabi qonun xujjatlarida maktabgacha ta'lim tuzilmasini tubdan isloh qilish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, malakali pedagoglar bilan ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hartomonlama muvofiq psixologik muhitni tashkil qilish, psixologik xizmatlar sohasini to'g'ri yo'lga qo'yish va takomillashtirish juda ham muhim jihat hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

XVII-asr boshlarida pedagog xodim tushunchasi bilan bir qatorda turuvchi quyi pog'ona vakili ya'ni tarbiyachi kasbiga nisbatan talablar malum qolibda ishlab

<sup>1</sup> Lex.uz malumotlaari asosida



chiqildi. Buyuk rus pedagogik olimi Ya.A.Komenskiyning fikricha tarbiyachilik kasbining asosiy xususiyati shundan iboratki, ushbu shaxs o'zining yuqori darajadagi axloqiyliги kishlarga muhabbati, bilimi mehnatsevarligi va boshqa sifatlari bilan tarbiyachiga namuna bo'lsin va namuna ko'rsatib ularda insoniylikni tarbiyalasin<sup>2</sup>.

Yana bir us olimi K.D.Ushinskiy esa tarbiyachini "yosh qalb uchun yoqimli quyosh nuri"ga o'xashtgan.<sup>3</sup>

Bolalar psixologiyasi fanida obyektiv fikrlar faqatgina bola shaxsi rivojlanishiga qaratilib qolmaydi, balki bu bilan parallel tarzda ish olib boradigan maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining ham faoliyati alohida o'rganiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni to'g'ri yo'lga qoyish yo'lga qo'yish va bu sohani yanada rivojlantirish uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratildi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi psixologik xizmatlarni rivojlantirishdan kutilayotgan asosiy maqsad bola shaxsining aqliy va ruhiy salomatligini ta'minlashdan iboratdir. Bolalar bog'chasida faoliyat olib boruvchi psixolog avvalo aqliy rivojlanishning umumiy qonunlarini va shunga muvofiq tarzda ruhiy holat, temperament kabi asosiy psixologik tushunchalarni biladigan, rivojlanishning yoshga va ruhiyatga xos jihatlarni amaliyotga tadbiiq eta oladigan shaxsdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish davrda individuallashtirilgan shaxsiy

neoplazmalarning avvalgi psixologik yoshi oxirida paydo bo'lgan shaxsiy xususiyatlarini (kuch, surat, hajm, tezlik, ritm) takomillashtirish, rivojlanish, mazmun jihatidan va rasmiy-dinamik xususiyatlar davri hisoblanadi<sup>4</sup>. Ushbu davrdagi bola psixologiyasida kelajakda rivojlanish uchun xizmat qiladigan daslabki hissiy va aqliy ko'nikmalar shakllanib boradi va ushbu jarayonlarning nazoratsiz qolishi shaxsiy rivojlanishdagi aqliy va psixologik nuqsonlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bosh miyadagi xotira izlarining asosiy qismi bolalikdagi hayot tarzi omillari va yig'ilgan bilim va ko'nikmalar, kasbiy bilimlarning daslabki lug'aviy bazasi asosida vujudga keladi. Sodir bo'lgan barcha voqea-hodisalar keyingi rivojlanish davrida chuqur va o'chmas iz qoldiradi. Yuqoroda bejizga Y.A. Kamenskiyning iborasini misol qilib keltirilmadi. Tarbiyachi ota-ona mehridan tashqari asosiy hayotiy instinktlarning keng rivojlanishiga bevosita pedagog va psixolog sifatida ta'sir ko'rsata oladigan shaxs hisoblanadi

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Tarbiyachi faoliyatining psixologik aspektini yoritishdan avval uning pedagogik soha vakili ekanligini unutmazlik lozim. Tarbiyachida avvalo bolani nazorat qilish va unga malum ko'nikmalarni berish bo'yicha pedagogik mahorat shakllangan bo'lishi lozim. Shu o'rinda pedagogik mahoratning maktabgacha ta'lim tizimi doirasidagi tasnifiy va nazariy manbalariga izoh berib o'tsak:

<sup>2</sup> А.В. Запорожец. Избранные психологические труды. –М.: Педагогика, 2016. - 239 с.

<sup>3</sup> Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o'qitish metodikasi. –Т., 2007. / Пер.с.англ. В.А.Островкого. М.: НТ Пресс, 2007,176с.

<sup>4</sup> Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o'qitish metodikasi. –Т., 2007. / Пер.с.англ. В.А.Островкого. М.: НТ Пресс, 2007,176с.



Pedagog shaxs avvalo o'z ishinig ustasi va yuqori madaniyat darajasiga ega o'z sohasini chuqur o'zlashtirgan, egallagan turdosh soha fan va san'atidan yaxshi xabardor bo'lgan umumiy va xususan bolalar psixologiyasini nazariy va amaliy jihatdan egallagan ta'lim-tarbiya metodikasini alo darajada o'zlashtirgan mutaxassisdir. Ushbu ta'rifni chuqur anglash jarayonida quyidagilarni aniqlash mumkin:

Pedagogik qobiliyat so'zining mazmuniga:

a) umumiy yuqori madaniyat eruditsiya;

b) o'z fanini chuqur va keng qamrovli egallaganligi;

c) umumiy pedagogika, umumiy psixologiya yosh va pedagogik psixologiya fanlarining nazariy bilimlari bilan, qurollangan va bu bilimlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana bilish malakasining mavjudligi;

d) ta'lim-tarbiya berish metodikasini mukammal egallagan bo'lishi (boshqacha qilib aytganda pedagog qanday o'qitish va tarbiyalashni biladi) kabilar kiradi.

2. Kimki tarbiyachilik kasbini tabiatan berilgan xohish va qobiliyat bilan tanlagan bo'lsa, pedagogik mahoratga erishishi mumkin (boshqacha qilib aytganda unda PM<sup>5</sup>ni shakllantirish va tarbiyalash mumkin)

V.A.Slasteninning fikricha tarbiyachilik pedagogik qobiliyati shaxsning kasbiy yo'nalishda erishgan yuqori darajadagi ko'rinishidir.

So'ngi yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, pedagogik qobiliyat tarkibiga ko'ra

quyidagi elementlarni o'zaro uzviy bog'langan holda jamlashi zarur:

- pedagogik layoqat;
- kasbiy bilim;
- pedagogik faoliyatga tegishli qobiliyatlar;
- pedagogik texnikani egallanganlik.

Tarbiyachilik sohasida kasbiy bilimlarning xususan pedagogik-psixologik manbalarning yetishmasligi, tadbiiq etilmasligi va hatto unga bo'lgan yetarlicha etiborning yo'qligi ko'pgina hollarda kasbiy faoliyatda eski tartibdagi sovuqqon metodikaning shakllanib qolishiga olib keldi. Bu noto'g'ri tushuncha, chunki har bir kasbda, xususan tarbiyachilik kasbida alohida xilma-xil ijodiylik va mahorat uyg'unligi mujassam bo'lishi lozim

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi shaxs shubhasiz tarbiyachidir. Aytish o'rinliki, tarbiyachi (muallim-ustoz) maxsus tayyorgarlik boqichidan o'tagan va pedagogik sohada faoliyat ko'rsatish bo'yicha mutaxassis sifatida shug'ullanmayotgan kishidir. Shu o'rinda mutaxassis so'ziga etibor qaratish zarur. Nomutaxassis sifatida pedagogik faoliyat bilan barcha shug'ullanmoqda, bu yerda faqat tarbiyachigina pedagogik faoliyatni qachon va qanday bajarishni biladi, pedagogik qonuniyatlarga muvofiq harakatlana oladi, kasbiy burchining bajarilish sifatiga belgilangan tartibda javobgarlikni his etadi.

Tarbiyachi o'rnida turgan kishi barchasi uchun javobgar: u zukko va o'quvli, bilimli va ilmi bo'lishi lozim Har bir tarbiyachining kelajagiga o'sib kelayotgan avlodning jamiyat va davlatning taqdiriga javobgarlik hissi tarbiyachi unvonining tafsifini belgalydi.

<sup>5</sup> PM-pedagogik mahorat



Tarbiyachining bugungi kungi mehnati samarasi qanday bo'lsa, ertangi kun jamiyat aynan shunday shaxslar jamlanmasidan shakllanadi. Ba'zi nomutaxassis kishilarning tarbiyachi shaxsiga nisbatan oddiy yollanma ishchi sifatida qarashlari va noo'rin fikrlari hozirgi islohotlar soyasida qolib ketdi.


Tarbiyachi bolalarni o'qitishga emas, balki o'qishga boshqarib turishi tarbiyalash emas tarbiya jarayoniga rahbarlik qilish uchun yaratilgan degan fikrlar mutlaqo asossizdir. Zero har bir bolaning psixologiyasi bilan, turli qiziqish, emotsiya va odatlari bilan cheklangan makon va vaqtda tartibli shug'ullanish oson ish emas. Usahbu vazifani u qanchalik chuqur anglab yetsa u o'z bolalariga shunchalik erkinlik tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash uchun sharoit yaratib bergan bo'ladi.

Tarbiyachilik qobiliyatini kasbiy jihatdan yuqori darajada egallagan shaxs ta'lim-tarbiya jarayonini go'yo chetdan kuzatib turgandek ko'rinadi. Real holatda

esa u bu jarayonni bohqaruvchi markziy apparat hisoblanadi.

**1-rasm:** *Tarbiyachi kasbiy-pedagogik va psixologik salohiyati tarkibi.*<sup>6</sup>

Talim-tarbiya jarayonidagi har qanday muammoni qisqa vaqt ichida bolaga qiyinchilik va og'riq keltirmasdan hal qilish, yuzaga kelgan muammolarni ota-onalarga yetkazish va hamkorlikda ish olib borishdir. Ko'plab muammolar vaqtinchalik va psixologik xarakterga ega bo'lib, tarbiyachining pedagoik va psixologik ko'magi ta'sirida zudlik bilan bartaraf etiladi. Shu jihatdan tarbiyachi avvalo mahoratli pedagog va psixolog bo'lmo'gi darkor. Bola psixologiyasini anglash va uning ruhiyatiga psixologik yordam ko'rsatish barcha muammolarning kalitidir. Chunki ruhiy holatni bilish va muloqotda bo'lish bosqichida bola shaxsini asta sekin tushunib boriladi va ba'zi umumiy va xusuiy aspektlar ushbu jarayonda faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy tomonlama qo'llanishiga



ulardan  
10 34-38-



yordam beradi

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o'rtasida shuningdek tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik bor. Buni yuqorida kasbiy va pedagogik mahoratning psixologik aspekti sarlavhasi ostida tahlil qilib o'tdik. Muammoning asosiy yechimi sifatida avvalo kasbning tabiatan berilgan qobiliyatga tayangan holatdagi tanlanishi va jarayonda ishtirok etibgina qolmay uning bevosita katalizatori bo'lishni misol qilib keltirish mumkin. Metodik jihatdan bola bilan muloqot savol-javob, o'yin va mehnat faoliyatining turli shakllarini olib borishning o'zi psixologik yo'nalishdagi qilingan xizmat namunasi bo'la oladi.

Bolalarning shaxsiy rivojlanish mantiqi va tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda va tarbiyachining bu boradagi pozitsiyasi boshqa tomonda turishi mumkin. Bu holatda tarbiyachi psixologik xizmatni kasbiy mahorat bilan ham, pedagogik mahorat bilan ham ko'rsata olmaydi. Tarbiyachi bilan bolalarning maqsadlari bir-biriga mos kelgan holatdagina uning kasbiy kompetensiyasi, kretivligi va eng muhimi psixologik faoliyat jihatlari ta'lim-tarbiya

jarayonini muvofiq yo'lga qo'yishga xizmat qiladi

### **NATIJA**

Tadqiqotlar va tahlillar natijasiga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari tashkilot psixologining faoliyat yo'nalishini o'rganishi va hamkorlikda ish olib borishi lozimligi belgilab olindi.

Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari:

1. Psixologik ma'rifat.
2. Psixologik oldini olish.
3. Psixologik diagnostika.
4. Psixologik tuzatish.
5. Psixologik maslahat

Shunday qilib bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy va psixologik yordam tizimi sifatida bolalar, ota-onalar va tarbiyachilar uchun rivojlanish, ta'lim-tarbiya, moslashuv, har bir o'tish yosh davri masalalari bo'yicha o'z vaqtida malakali maslahat, uslubiy, psixodiagnostik va psixokorreksion yordam ko'rsatishda yordam berishi aniqlandi.

Tarbiyachining faoliyat jarayonidagi asosiy vositasi hisoblangan so'z boyligidan tashqari so'zsiz muloqot vositalari ham uning pedagoik, kasbiy va psixologik mahoratini shakllantirishga yordam beradi. Ularni quyidagicha izohlash mumkin



**1-jadval**

Tezkor ifodali harakatlar	Elstraling vistika	Mehr va yaqinlik	Munosabat va masofa
Tikilish harakati odimlash nigoh	qo'l yuz to'xtalish, nafas olish, tabassum yo'llatish	Qo'l siqish yelgasiga yengil urush boshini silash Tnasiga tegish	Mo'ljal, masofa

Yana shu narsa aniqki, bolalar bolalar tarbiyachi mehrini qabul qilish yuzasidan 3 toifaga bo'linadilar.

1. Bolalar tanasiga tegib (boshini silash, qo'lidan ushlab quchish)
2. Bolalar esa ismiga erkalash qo'shimchalarini (jon, bek, oy -xon) qo'shib aytgan tarbiyachilarni xush ko'radilar.
3. Bolalar do'stona samimiy nigohning o'zi yetarli.

Kichik tadqiqotimiz jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy-psixologik aspektlari va kompetensiyasi, uning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga harakat qilindi. Ushbu muammoning samarali yechimi sifatida bola shaxsining temperamenti va ruhiy emotsional holatiga munosib baho bera olish, diqqat, muloqot, tafakkur va tasavvur kabi tushuncalarni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda

rivojlanish bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish metodikasi misolida keltirish mumkin

**XULOSA VA MUNOZARA**

Bir so'z bilan aytganda yuqorida misol keltirib o'tilganidek bolaning rivojlanish mantiqi va tarbiyachinig qo'llayotgan metodi, kasbiy amaliy faoliyati bir-biriga proporsional mutanosiblikda bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish tashkilot psixologining har bir bola ruhiy salomatligi va rivojlanishini to'laqonli ta'minlaydigan faoliyat vazifasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishiga qaramay ushbu jarayonda bola bilan eng ko'p vaqt o'tkazadigan va uning har bir hatti-harakatiga bevosita ta'sir qiladigan tarbiyachilarning kasbiy mahorati va psixologik holati talab darajasida bo'lishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son



2. 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ2707- sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya'ning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-son Qarori qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020 y.,09/20/802/1658-son
5. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Davlat o'quv dasturi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi BMTning Bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magi yordamida yaratildi va nashr etildi. T.: 2018. 5. Muslimov N, Usmonboyeva M, Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o"quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent 2015, 120- bet.
6. А.В. Запорожец. Избранные психологические труды. М.: Педагогика, 2016. -239 с.
7. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o'qitish metodikasi. -T., 2007. / Пер.с.англ. В.А.Островкого. М.: НТ Пресс, 2007,176с.